

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA BADIY YUKSALISH TADRIJI

Xoliyorova Aziza Alixonovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16787904>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyid she'riyatining turli davrlardagi o'zgarishlari xususan, tuyg'ularning she'rga ko'chgan tasvirlari, ma'noviy teranlashish tadrijiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Inson, dunyoqarash, ijod, tahlil va talqin, ruhiyat, individuallik, badiiy bo'yoqdorlik, voqelantirish, idrok etish, tashbeh, darajalanish.

THE PROGRESS OF ARTISTIC DEVELOPMENT IN THE POETRY OF SIROJIDDIN SAYYID

Annotation. This article analyzes the unique features of Sirojiddin Sayyid's poetry, the world of man and life concepts through artistic thought.

Keywords: Human, worldview, creativity, analysis and interpretation, spirituality, individuality, artistic expression, metaphor.

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПОДЪЕМА В ПОЭЗИИ СИРОДЖИДИНА САЙЙИДА

Аннотация. В этой статье анализируются особенности поэзии Сироджиддина Саййида, его представления о мире, человеке и жизни посредством художественного мышления.

Ключевые слова: Человек, мировоззрение, творчество, анализ и интерпретация, психика, индивидуальность, метафора.

Dunyoda har bir mavjudodning o'z tug'lish vaqtini, yashash sharoiti hamda o'z makoni bo'ladi. Masalan kapalak gul-u gulzorda, chumoli tuproqda, baliq suvda tug'ilgani kabi.

Ularning makoni ham bir-biridan farqli. Ijodkor shaxsi ham har qanday inson kabi muayyan zamon-u makonda tug'uladi. Dunyoqarashi o'sha muhitda shakllanadi, rivoj topadi.

Ijodkor yaratgan asarlar aniq ijtimoiy-tarixiy kontekst bilan qattiq bog'langan bo'ladi.

Ammo shunday ijodkorlar borki, ularni davr emas, ular davrni yaratadi.

Adabiyotshunoslik mana shu holni doim kuzatib, olimlar esa bu jarayonni o'z ilmiy asarlarida izohlab kelishadi. Yozuvchi yoki shoirning o'z asarlarida ilgari surgan g'oyalari, o'zi yashayotgan jamiyat qonun-qoidalariiga mos va ayni vaqtida buning butunlay aksi bo'lishi ham mumkin. Chinakam shoirlilikni, adabiyotni o'ziga qismat deb biluvchi ijodkorlar dunyoni oddiy insonga qaraganda ancha boshqacha ranglarda ko'radi. "Ismsiz tuyg'ularda" his qiladi. Buni Sirojiddin Sayyid she'riyati misolida ko'ramiz.

Olis kechinmalar qa'rida

U men ko'rolmagan bir nurdir

Yo'llar hayqirig'I bag'rida

U- men yasholmagan umrdir...¹

Sirojiddin Sayyid ijodi buyuk bir cho'qqi kabi osmonlarga bo'y bergen bir ijoddir. Har qanday tog'ning tepasiga yo'l uning etagidan boshlangani kabi d ushbu maqolada mana shu ijodiy yuksalish kategoriyasini tahlil qilmoqchiman. Shoirning ikki jildlik tanlangan asarlarini asosiy obyekt sifatida oldim. Ijodkorning dastlabki she'rlari asosan tabiat, bolalik, sog'inch, o'smirlik haqidagi motivatsion ruhdagi she'rlardir.

¹ Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li:Tanlangan asarlar.1-jild.-T.:”Sharq”,2008.-22 b

Bu she'rlarda asosan baxt, yuksak manzillarni ko'zlagan inson, uning mashaqqatli yo'li, bolalikni qo'msash, orzular haqida so'z boradi. "Eski uy", "Bolalik daraxti", "Bolalik", "Sog'inch", "Quyosh qizi", "Tungi o'rimdan so'ng", "O'smirlilik" ushbu she'rlar shular jumlasidandir.

Bu yog'i... qanotning keragi yo'qdir
 Bu yog'i jimgina yonguvchi olov.
 Sevgilim, oldinda neki manzil bor,
 Yuraklarning o'zi yetkazar yayov.²

Shoir ushbu jumlalar orqali o'zi uchun o'zi bashorat qilayotgandek go'yo. U mana shu mashaqqatli yo'lga tayyordek. U buning uchun barcha qiyinchiliklar, iztiroblarga ko'z yumadi.

O'z yo'lini olovli yo'l ekanligini va bu yo'lga muhabbat bilan yayov chiqqanligini ta'kidlaydi. Keyingi she'rlarda tabiat bilan bog'liq uyg'unlik, baxt yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bahor payti asta silkinib,
 Tuyg'ularing ko'targanda bosh
 Qutlar seni birinchi bo'lib
 Erta kirib kelgan qaldirg'och³

Keying yillarda shoir ijodida eng go'zal tuyg'u muhabbat bo'y ko'rsata boshladi. Balkim bu she'rlar shoirning buyuk dostonlariga yo'l ochgan debochadir. Dastlab ushbu tuyg'u bilan bedor oshiq holi tasvirlangan she'r dan so'ng, shoir ijodiga iztirobli sevgi, topish va yo'qotish, muhabbatni manguga his qilish kabi tuyg'ular kirib keldi.

Sen yig'lading,
 Menden yuz o'girdi quvonchlar.
 Sen yig'lading,
 Tonglarim bo'g'zida qoldi quyoshlar.
 Sen yig'lading,
 Yulduzlar o'chdi.
 Men bo'lsa ishq dedim ming bora
 Ishq deb shafaqlarga qaradim,
 Shafaqlar-qora.⁴

Sirojiddin Sayyidning she'rlarida vatanga bo'lgan muhabbatning nafis ranglarini ham ko'rishimiz mumkin. Shoirning o'ziga xos ijodi shundan iboratki ijodkorning she'rlari oddiy xalqa yaqin, u alohida auditoriya tanlamaydi. Shuning uchun ham yuraklarga tez yetib bora oladi.

Ijodkor oddiy shunday quyma satrlar yaratganki, ular bugun xalqimiz tomonidan yod bo'lib ketgan. "Vatan abadiy" she'ri aynan fikrim dalilidir.

Sirojiddin Sayyidning 2003-yilda yozilgan "Yoshlik. Bahor. Muhabbat" she'rida hayot, umr, dunyo haqidagi tushunchalar umumlashib, tuyg'ular ham teranlashadi. She'r go'yo kuydek yangraydi. Shoir kichik misralarga tog'dek ma'no joylaydi. Bu ham ijodkorning tengsiz mahoratining bir ko'rinishidir.

Asrlar bor-ro'yoday,
 Fasllar bor –muvaqqat.

² Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li:Tanlangan asarlar.1-jild.-T.:”Sharq”,2008.-18 b

³ Sirojiddin Sayyid. So'z: yo'li Tanlangan asarlar.1-jild.-T.:”Sharq”,2008.-21 b

⁴ Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li:Tanlangan asarlar.1-jild.-T.:”Sharq”,2008.-41 b

Doim zangor daryoday
Yoshlik.Bahor. Muhabbat.

Dunyo archasi yolg'on
Qancha-qanchasi yolg'on.
Shudir yodimda qolgan
Yoshlik. Bahor. Muhabbat.⁵

Har bir ijodkorning hech qachon bitmaydigan va eskirmaydigan, har bir kitobxonning ham hamisha yuragiga eng yaqin mavzu bu-muhabbat. Muhabbat haqidagi she'rlar qaysi davrda va qanday makonda yozilishidan qat'ynazar eng yangisi va eng betakrori bo'lib qolaveradi.

Yoshlik va bahor esa muhabbatning osmonga chorlagan qanolardek go'yo. She'rni tahlil qilish juda muhim jarayondir. Bu jarayonda shoir shaxsi muhim ahamiyatga ega. Chunki she'rda shoir ruhiyati, unda kechayotgan iztirob, hasrat, iqror, istak eng nozik qalb shivirlarigacha o'z aksini topadi. Bu jarayonga Abdulla Oripov o'z asarlarida shunday ta'rif beradi:" Qaysidir shoir ijodiga baho berayotganda faqat uning, ya'ni aynan bir shoirning ruhiy qiyofasidan turib qarash kerak. Mahorati mukammal, fikri tiniq ijodkorning qaysi mavzuda bo'lsin yozgan asari kitobxon qalbiga, albatta yetib boradi. Shu ma'noda yuksak pafosning ham, qulqoq ilg'amas lirk entikishlari ham o'z betakror qadru qimmati, sehru jodusi mayjud".⁶ Darhaqiqat, inson uning tuyg'ulari turfa ranglarda jilolanadi. Uning qalbi, ruhiyati kardiogramma kabi doim turli chiziqlar izmida. Balandlik va pastlik... hamda bu tabiiy jarayon . Qachonki yurak to'xtasa, kardiogramma ham bir chiziqqa aylanadi. Xuddi inson kabi... Sevgi , muhabbat bu eng go'zal tuyg'ular. Har bir insonning yuragida muhabbatning eng kichik bo'lsada uchqunlari bo'ladi.

Ba'zan shunday she'rlar bo'ladiki, o'sha she'rni o'qish ham bu uchqunni alangalatib yuboradi. Sirojiddin Sayyid she'rlari ham xuddi shunday olov she'rlardir. Uning ijodi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ruhiy, sotsial taraqqiyot va tarixda o'ziga xos va o'z yo'liga ega bo'lgan ijoddir. Bu yo'lda borliq va uning Yaratuvchisi, inson va tabiatning munosabatlari, umr, umrning lahzalik nafasi, olamning soat kabi aylanuvchi va hisob-kitob qiluvchi kafgiri, zamon va makon, dunyo va insonning mohiyatni anglash jarayonidagi o'rni, inson yuragidagi eng kichik tomchilardan eng buyuk evrilishlargacha barchasi o'z aksini topgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: Akademnashr.2018.
2. Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z.-Toshkent: Yangi asr avlod,2006.
3. B.Karim. Ruhiyat alifbosi. - Toshkent: G'afur G'ulom,2017.
4. U.Normatov. Ijod sehri. -Toshkent.: Sharq, 2007.
5. S.Sayyid. Qaldirg' ochga ber ayvonlaringni. -Toshkent.: Sharq,2005.
6. S.Sayyid.So'z yo'li. Tanlangan asarlar. 1-jild.-Toshkent.: Sharq,2008.

⁵ Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li:Tanlangan asarlar.1-jild.-T.: "Sharq",2008.-341 b

⁶ Oripov A. Tanlangan asarlar.7-jild. –T.,Sharq NMIU,2013.226-b.